

O'ZBEKISTONDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENTSIYALARI TAHLILI

Sevara Aytieva

PhD, "Biznes boshqaruvi" kafedrası dotsenti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Orcid: [0000-0002-9020-5813](https://orcid.org/0000-0002-9020-5813), sevaraaytieva756@gmail.com

(97)464-78-81

Annotatsiya. Jahon miqyosida yetkazib berish zanjirida oqimlarni samarali tashkil etish va boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi iste'molchilarning tayyor mahsulot va xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy, xususan AQSh, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlarda yuklarni iste'molchilarga kerakli hajmda, o'z vaqtida, kerakli joyga, sifatli va maqbul narxlarda yetkazib berish bo'yicha yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tashish hajmlarini oshirish, iste'molchilarning yuk oqimlarini tashib yetkazishga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida kafolatli qondirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bugungi kundagi eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

I.KIRISH

Jahonda yalpi xizmat ko'rsatish jarayonlarini modellashtirish, tizimning faoliyat ko'rsatish samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish ishlari hajmini optimallashtirish, tizimga kirib keluvchi oqim jadalligini xizmat ko'rsatish imkoniyatlari bilan o'zaro muvofiqlashtirish kabi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, diskret va uzluksiz holatlarda yalpi xizmat ko'rsatish tizimiga kirib kelayotgan avtomobil transporti vositalarining ishini tezkor va samarali rejalashtirish jarayonlarini modellashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, tashish jarayonida samarasiz yo'qotishlar va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan usullar avtotransport va yuklash vositalari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekistonda avtomobil transporti vositalariga xizmat ko'rsatish jarayonini modellashtirish va boshqarish, yalpi xizmat ko'rsatish nazariyasi, uslublari va yondashuvlari asosida sochiluvchan qurilish yuklarini tashish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida "...hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlari tarmog'ini tashkil etish va yuk tashish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish"¹ bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda avtomobil transporti va yuklash vositalarini xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini o'zaro moslashtirish asosida eng kam iqtisodiy yo'qotishlarni ta'minlaydigan xizmat ko'rsatish parametrlarini aniqlashga imkon beradigan ilmiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – www.lex.uz

asoslangan uslubiyot ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida ko'rsatilgandek, "mutlaqo yangi yondashuv qo'llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilgan"²³. Mazkur vazifalarni samarali ijro etish uchun mamlakatda yuk tashishni tashkil etishning kichik tadbirkorlik shakllaridan foydalanish, birinchi navbatda, kichik tadbirkorlik shakllarida yuk tashish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini tadqiq etish, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yuk tashish xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarur.

II.METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasida transportda yo'lovchi tashishi xizmati 2015–2023-yillarda o'rtacha 14 foizga o'sganligini, taransport turlari bo'yicha esa yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish hajmi temir yo'li bo'yicha pandemiya davrini hisobga olgan holda mos ravishda 20,1 va 9,7 mln.kishi tashilgan bo'lsa, avtomobilda esa 5 293,2 va 6 270,2 mln.kishi o'z yo'lovchilar tashilgan (1-jadval).

1-jadval

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi	3 595,9	3 962,4	4 072,0	5 380,0	5 295,9	6 029,7	6 245,3	6 452,0
temir yo'li	14,6	15,1	14,5	20,1	6,2	7,9	9,0	9,7
avtomobil 1	3 284,7	3 796,4	3 962,6	5 293,2	5 248,5	5 914,2	6 092,1	6 270,2
trolleybus	77,1	16,8	1,6	0,8	0,3	0,5	0,5	0,7
tramvay	92,4	43,3	25,8	11,4	1,2	2,3	2,9	3,4
metropoliten	125,7	89,9	65,6	52,3	38,8	101,8	136,7	162,7
havo yo'li	1,5	0,9	1,9	2,2	0,9	3,0	4,1	5,3

² Yangi Uzbekistanning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi". https://review.uz/oz/post/2022-2026_yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasining-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi

Yo'lovchi aylanmasi, mlrd. yo'lovchi-km	30,9	46,2	83,8	120,1	118,3	137,0	146,5	152,7
temir yo'li	2,2	2,1	2,9	3,8	1,8	3,1	3,6	3,9
avtomobil 1	23,3	38,6	74,5	109,1	113,2	127,9	131,0	133,8
trolleybus	0,3	0,1	0,02	0,02	0,01	0,01	0,01	0,02
tramvay	0,3	0,2	0,1	0,04	0,004	0,01	0,01	0,01
metropoliten	0,9	0,6	0,5	0,4	0,3	0,7	1,0	1,2
havo yo'li	3,9	4,6	5,8	6,8	3,0	5,3	10,9	13,8

Izoh:

1) Alohida faoliyat turlarini hisoblash uslubiyatining o'zgarishi sababli 2010 yildan ma'lumotlar aniqlashtirildi

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi 2023 yilda 152,7 mlrd. yo'lovchi km yuk aylanmasi tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2015 yilga qarganda 32,6 mlrd. yo'lovchi km oshganini ko'rishimiz mumkin.

Hisob kitoblarga ko'ra, 2015-yillarda temir yo'l va avtomobil mos ravishda 3,8 va 109,1 mlrd. yo'lovchi km, 2023 yilga kelib esa bu 3,9 va esa 133,8 mlrd. yo'lovchi km yo'lovchi tashish masofasi yo'lovchi soniga nisbatan ortib borayotganligidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval

Avtomobil transportida tashilgan yo'lovchilar soni (mln. yo'lovchi)

	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	3 284,7	3 796,4	3 962,6	5 293,2	5 248,5	5 914,2	6 092,1	6 270,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	110,0	97,0	79,7	111,7	131,4	137,5	144,6	146,8
viloyatlar:	172,3	169,3	412,2	624,4	648,5	715,9	731,7	737,8
Andijon	137,6	149,3	173,1	260,5	267,7	278,4	290,4	292,3
Buxoro	78,3	111,2	58,3	77,3	88,8	95,9	92,2	93,7
Jizzax	188,7	205,7	159,2	257,2	266,4	308,0	316,0	333,5
Qashqadaryo	94,9	100,2	89,9	132,1	158,3	171,0	174,2	178,4
Navoiy	178,6	159,7	307,7	391,8	414,2	447,1	449,9	457,5
Namangan	229,1	233,5	311,9	457,6	415,8	423,4	432,8	436,9
Samarqand	162,3	220,1	163,2	237,7	225,0	265,1	281,3	290,0

Surxondaryo	82,7	96,2	55,0	66,3	73,5	85,0	85,1	87,7
Sirdaryo	561,4	649,2	549,8	647,8	600,5	703,9	731,0	739,2
Toshkent	366,9	427,1	393,0	587,3	582,8	674,2	689,2	697,6
Fargʻona	122,5	211,6	257,8	346,3	368,4	437,6	448,4	459,9
Xorazm	799,4	966,4	952,1	1 095,1	1 007,2	1 171,2	1 225,3	1 318,9

Avtomobil transportida tashilgan yoʻlovchilar soni 2015 yilda 5 293,2 mln. yoʻlovchi tashilgan boʻlsa, 2023 yilga kelib esa 6 270,2 mln. yoʻlovchi tashilgan. Mosa ravishda hududlar boʻliycha eng katta koʻrsatkichni 2015 yilda Toshkent shahri 1 095,1 mln. yoʻlovchi tashilgan, 2023 yilga kelib 1 318,9 mln. Kishiga yetganini koʻrishimiz mumkin. Bu koʻrsatkich boʻyicha eng past koʻrsatkichni Sirdaryo viloyati qayd etib mos ravishda 66,3 va 87,7 mln. yoʻlovchi tashilganini koʻrishimiz mumkin (2-jadval). 2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 300,3 mlrd soʻmga yetdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 11,2 % ni tashkil etdi. 2024- yil yanvar-mart oylarida yoʻlovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi 67,7 foizga yetdi. Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga toʻgʻri keladi – 53,5 %.

3-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd.soʻm hisobida)

Koʻrsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Xizmatlar – jami	27 126,8	78 530,4	219 978,5	284 388,1	366 891,0	470 286,5
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	2 080,2	5 181,5	13 852,3	17 755,1	24 508,1	32 226,6
moliya xizmatlari	2 643,7	8 206,7	45 783,0	59 733,3	80 849,1	106 363,8
transport xizmatlari	10 524,4	26 817,3	53 662,9	67 238,6	83 985,6	108 477,7
shu jumladan: avtotrasport xizmati	5 124,0	16 032,1	28 474,1	36 249,3	41 726,8	51 272,7
yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	292,7	890,6	5 431,7	8 375,4	13 115,6	18 327,3
savdo xizmatlari	6 620,8	21 366,9	57 572,7	72 483,2	89 816,2	110 662,4
koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlar	809,3	2 757,3	6 016,9	8 081,1	9 581,7	12 064,3

ta'lim sohasidagi xizmatlar	763,1	2 681,4	8 539,4	12 102,6	15 858,4	20 418,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	258,0	1 100,4	3 386,7	5 105,9	6 613,1	8 441,2
ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	548,0	1 801,6	4 149,0	5 351,0	6 471,7	7 542,6
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	624,2	1 724,5	3 347,8	4 680,5	5 707,3	7 021,5
shaxsiy xizmatlar	756,5	2 366,5	5 032,2	6 764,1	8 670,8	10 916,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	299,2	841,0	4 907,5	6 306,8	7 284,2	7 959,7
boshqa xizmatlar	906,7	2 794,7	8 296,4	10 410,5	14 429,2	19 865,0

Izoh: 1) Alohida faoliyat turlarini hisoblash uslubiylatining o'zgarishi sababli 2010 yildan ma'lumotlar aniqlashtirildi

2020 yil yakunlari bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi 2010 yilga nisbatan 9,6 barobar oshganligini, ishlab chiqaradigan sanoat hajmi shu davrda 10,8 barobar, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish hajmi 12,1 barobarga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 6,2 barobar hamda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 2020 yilda 2010 yilga nisbatan 10,6 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

Jadal rivojlanish davri bo'lgan 4 yilda (2020 yilda 2017 yilga nisbatan) sanoat mahsulotlari hajmi 2010 yilga nisbatan 2,4 barobarga, ishlab chiqaradigan sanoat hajmi shu davrda 2,6 barobar, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish hajmi 2,1 barobarga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 6,2 barobar hamda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 2020 yilda 2010 yilga nisbatan 2,1 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday ijobiy tendensiya avvalo, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan uzoqni kuzlab qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarilishi hamda shu maqsadlarda olib borilayotgan samarali iqtisodiy islohotlar natijasi hisoblanadi. Biz transport xizmatlari oxirgi ikki yillikni ko'radigan bo'lsak, 2022-2023 yillarda 83 985,6 mlrd so'mlik xizmatlar bajarilgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilga kelib 108 477,7 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bu yildan yilga mamlakatimizda transport sohasi rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

O'zbekiston aholisi so'nggi 30 yilda 15 mln kishiga ko'paygan. Prognozlariga ko'ra, 2030 yilga borib respublikada istiqomat qiluvchilar soni 40 mln kishiga yetadi. Ushbu holat ortayotgan aholi uchun yangi ish o'rinlari, sifatli ta'lim va tibbiyot muassasalari qurish kabi bir qancha muhim strategik vazifalarni ishlab chiqib, amalga oshirishni nazarda tutadi. O'zbekistonda aholi jon boshiga YaIM 2024 yilda 3209

AQSh dollari bo'lishi kutilyapti. Shunda mamlakatdagi bir kishining hissasiga to'g'ri kelayotgan oylik o'rtacha summa 267,4 dollarni tashkil etadi. Demografik ko'rsatkichlarimiz 2016-2018 yildan e'tiboran keskin ko'tarildi, 2016 yilda har bir ayolga mamlakat hisobida 2,1 nafar farzand to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 3,1 nafarga yetdi. Tug'ilish o'syapti, o'lim koeffitsienti kamayyapti. Mazkur jarayon natijasida har yili davlat aholisi 730-750 mingga ko'payyapti. 2015 yilda O'zbekistonda 18,6 million kishiga ko'paygan bo'lsa bu ko'rsatkich 2017 yilda 17,1 million kishi va 2022 yilda 21,4 million kishi yetganini ko'rishimiz mumkin. Yildan-yilgan aholi soni ko'payib borayotganini ko'rshimiz mumkin (4-jadval).

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish natijasida 2015-2016 yillarda Umumta'lim muassasalari soni 9 720 tashkil qilgan bo'lsa, 2017-2018 yillarga kelib esa 9718 tashkil qilgan va kamyani ko'rshimiz mumkin 2022-2023 yilga kelib esa 10522 tashkil qilgan va oxirgi yillarda umumta'lim muassasalari oshganini ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

Umumta'lim muassasalari soni to'g'risida ma'lumot (o'quv yili boshiga, birlik)

	2015/ 2016	2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023
Umumta'lim muassasalari – jami	9 720	9 719	9 718	9 774	10 090	10 181	10 289	10 522
shu jumladan:								
shahar joylarida	3 701	3 704	3 706	3 730	3 861	3 893	3 921	3 951
qishloq joylarida	6 019	6 015	6 012	6 044	6 229	6 288	6 368	6 571
boshlang'ich maktablar	21	30	27	37	37	47	56	72
shu jumladan:								
shahar joylarida	11	15	18	27	27	36	42	50
qishloq joylarida	10	15	9	10	10	11	14	22
umumiy o'rta maktablar	9 610	9 601	9 603	9 648	9 963	10 045	10 144	10 359
shu jumladan:								
shahar joylarida	3 609	3 609	3 608	3 622	3 752	3 776	3 798	6 450
qishloq joylarida	6 001	5 992	5 995	6 026	6 211	6 269	6 346	6 541
jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar	89	88	88	89	90	89	89	91

shu jumladan:								
shahar joylarida	81	80	80	81	82	81	81	83
qishloq joylarida	8	8	8	8	8	8	8	8

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812- son farmonida 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

III.NATIJALAR

Kichik biznesdagi avtotransport korxonasi faoliyatining samaradorligi uning tashqi muhitga qanchalik moslashishi, uning imkoniyatlarini hisobga olishi va ulardan maksimal foyda keltirishi bilan bog'liqdir. Avtotransport xizmatlari bozori o'zining beqarorligi, raqobatning murakkabligi, raqobatchilarning oldindan aytib bo'lmasligi, xizmatlarga talabning hayotiy siklini qisqartirishi bilan atrof-muhitni tahlil qilish va baholash, prognozlash va vaqt va rejalashtirishning o'zgarishi zarurligini belgilaydi, ya'ni, kompaniya faoliyati va bozor talablari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash zarurati mavjud.

Avtomobil transportida tashilgan yo'lovchilar soni 2015 yilda 5 293,2 mln. yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib esa 6 270,2 mln. yo'lovchi tashilgan. Mos ravishda hududlar bo'liycha eng katta ko'rsatkichni 2015 yilda Toshkent shahri 1 095,1 mln. yo'lovchi tashilgan, 2023 yilga kelib 1 318,9 mln. kishiga yetganini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich bo'yicha eng past ko'rsatkichni Sirdaryo viloyati qayd etib mos ravishda 66,3 va 87,7 mln. yo'lovchi tashilgan. 2024 yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 300,3 mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 11,2 % ni tashkil etdi. 2024 yilning yanvar-mart oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi 67,7 foizga yetdi. Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – 53,5 %. Demak, yo'lovchi tashishda kichik biznesni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

O'zbekistonda umumta'lim muassasalari soni, aholining tabiiy ko'payishi hamda avtomobil transporti xizmatini rivojlanishi (avtomobil transporti tashilgan yo'lovchilar soni) o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Mamlakatimizda transportda yo'lovchi tashish xizmati 2015–2023 yillarda o'rtacha 14 foizga o'sganligini demografik o'sish hamda aholi daromadlari bilan bog'lash mumkin.

IV.XULOSA

Amalga oshirilgan ekonometrik modellarga ko'ra, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi qurilish hajmining 1 foizga oshishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi yuk aylanmasini 0,65 foizga oshishiga olib keladi, ushbu

sohada bandlikni 1 foizga oshishi esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi yuk aylanmasini 3.005 foizga ortishiga olib kelishi aniqlandi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi savdo hajmini 1 foizga oshishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi yuk aylanmasini 0.52 foizga ortishiga olib keladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hajmini 1 foizga oshishi ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi yuk aylanmasini 1.45 foizga kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – www.lex.uz
2. Menglikulov, B. va boshq. (2023). O'zbekistonda transport-logistika va aloqa xizmatlarining samaradorligini oshirish yo'llari. *E3S Web of Conferences*.
3. *Invexi*. (2025). 2025 yil yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi.
4. *Invexi*. (2025). O'zbekiston iqtisodiy o'sishi: 2024 yildagi YaIM, natijalar va tendensiyalar.
5. O'zbekiston Statistika agentligi. (2024). O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari.
6. *Jahon banki guruhi*. (2020). O'zbekistonda biznes yuritish.
7. *Xalqaro Transport Forumi (ITF)*. (2025). O'zbekiston – Xalqaro Transport Forumi.
8. *TransLogistica Uzbekistan*. (2024). TransLogistica Uzbekistan 2024 – Vialatvia.com.
9. *Korea Post*. (2023). O'zbekistonda xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylandi.
10. *CyberLeninka*. (2022). Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari.
11. *BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC)*. (2024). O'zbekiston Respublikasining to'rtinchi milliy ma'ruzasi.
12. *ACM Digital Library*. (2023). O'zbekistonda elektron tijorat rivojlanishining hozirgi tendensiyalari.